

O‘QUVCHILARDA KASB TANLASH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK USULLARI

Aliqulova Nargiza Mustafayevna

Zarbdor tumani 3-maktabi amaliyotchi psixologi

Ergasheva Mahfuza Murtozaqul qizi

Zarbdor tumani 32-maktabi amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan. Kasb tanlash jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, shaxsiy xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, kasbga yo‘naltirishda qo‘llaniladigan zamonaviy psixologik va pedagogik usullar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, o‘quvchi, qobiliyat, qiziqish, psixologik diagnostika, pedagogik yondashuv, motivatsiya, kasbiy rivojlanish, mehnat bozori.

KIRISH

Yosh avlodning kelajakdagi hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilashi ko‘p jihatdan kasb tanlash jarayonining muvaffaqiyatli tashkil etilishiga bog‘liq. Kasb tanlash inson hayotidagi eng muhim qarorlardan biri bo‘lib, uning kelajakdagi kasbiy faoliyati, ijtimoiy mavqei va shaxsiy qoniqish darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘quvchilarda kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish ta‘lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash ko‘nikmasi o‘quvchining o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini anglagan holda ongli ravishda kasbiy yo‘nalishni belgilay olish qobiliyatidir. Mazkur ko‘nikmaning shakllanishi psixologik va pedagogik omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uzluksiz va maqsadli faoliyatni talab etadi.

Kasbga yo‘naltirishning muhim psixologik usullaridan biri psixologik diagnostika hisoblanadi. Turli testlar, so‘rovnomalar, suhbatlar va kuzatish metodlari yordamida o‘quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, temperament xususiyatlari hamda kasbiy moyilliklari aniqlanadi. Olingan natijalar asosida ularga individual tavsiyalar beriladi.

Kasb tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishda motivatsiyani shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash, kasblarning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida tushunchalar berish ularda ongli tanlov qilishga bo'lgan intilishni kuchaytiradi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar kasb tanlash masalasiga mas'uliyat bilan yondashadilar.

Pedagogik usullar orasida kasblar haqida ma'lumot berish, kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish, ekskursiyalar o'tkazish va amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Bunday tadbirlar o'quvchilarning turli kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi va ularning qiziqishlarini shakllantiradi.

Kasb tanlashda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish ham zarur. Pedagog va psixologlar o'quvchilarga tayyor qarorlarni taklif qilish o'rniga, ularni o'z imkoniyatlarini tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga o'rgatishlari lozim. Bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun muhim asos yaratadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida raqamli texnologiyalardan foydalanish kasbga yo'naltirish samaradorligini oshirmoqda. Kasblar haqidagi elektron platformalar, virtual ekskursiyalar, onlayn testlar va kasbiy maslahat xizmatlari o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Natijada ular zamonaviy mehnat bozori talablari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

Kasb tanlash jarayonida ota-onalarning o'rni ham katta. Ota-onalar farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashlari, ularga bosim o'tkazmasdan mustaqil tanlov qilish imkoniyatini yaratishlari zarur. Oila, maktab va psixolog hamkorligi kasbga yo'naltirish ishlarining samaradorligini oshiradi.

Kasb qanchalik muvaffaqiyatli tanlansa, inson o'zini shunchalik baxtli his qiladi. Ammo har qanday muttaxassislikni egallash uchun yaxshi o'qish va tanlanga kasbga koproq qiziqish kerak. Shunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish ham fundamental ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. O'z-o'zini anglashning chegaralanganligi bu-erkinlikni chegaralanishi hisoblanadi. Agarda mutaxassis o'zini chuqur bilsa, boshqalarni ham chuqur tushuna oladi. Shaxsiy

ma'suliyatlikni qabul qilish ham muhim sifatlardan hisoblanadi. Insoniyat paydo bo'libdiki u har doim o'zini boqishga, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo'ldan bormoqda. Inson o'z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim – kechaklarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo'lgach, ya'ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o'z ehtiyojlariga kerak bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo'lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo'lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to'plaganlar.

Kasb – inson ish faoliyatining ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir. Kasbga umumiy yoki maxsus ma'lumot hamda amaliy tajriba yo'li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba'zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig'uvchi chilangar kabi yo'nalishlar mavjud. Dunyoda 60 ming (qiyoslash uchun Rossiyada 20 ming) O'zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud.^[1] SHuni aytish joyizki jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko'payib boradi. SHu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur bo'ladi.

Kasb – hunarli bo'lish inson uchun zarur bir ehtiyoj ekanligini buyuk avlodlarimiz o'z asarlarida aytib o'tganlar. Deylik Kaykovus o'zining “Qobusnoma” asarida shunday yozadi “Bas, agar aqling bo'lsa xunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql – boshsiz tan, suratsiz badandekdir... Ey farzand, ogoh bo'lki, xunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas.” Hozirda o'sib kelayotgan yoshlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o'zi uchun qiziqarli bo'lgan kasbni tanlab olishlari va o'z hayotlarini mazmunli, yaxshi o'tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o'rni va ahamiyati juda katta. “ Men kelajakda kim bo'laman?”, “Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?”, “Mendagi iqtidor shunga etadimi?”, “Kelajagimdan qoniqamanmikan?” degan ko'lab savollar yoshlarni

o‘ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular ko‘plab kuzatadilar, hayotdan ma’lum bir malakalar olishga intiladilar.

Yoshlarning kasb tanlashlari maktabdan boshlanadi. Bunga ularni tayyorlab borish zarur bo‘ladi. Buni psixolog olim Anvar Jalolov o‘zining “Kasb qanday tanlanadi” kitobida shunday ko‘rsatib beradi. Xilma – xil va qiziqarli kasblarni tanlashning asosiy maqsadi yaxshi yashash va yaxshi kasbni tanlash hisoblanadi.

O‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasb insonni har doim o‘z ustida ishlashga, uni yaxshiroq bilishga olib keladi. Insonda kasb tanlash jarayonini yana shu muallif quyidagicha belgilaydi. Insonda ma’lum kasbga, uni egallashga xavas, mayil, orzu, ishtiyoq, xafsala bo‘lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o‘z kelajagini to‘g‘ri anglashga, tushunishga olib keladi. Unda istak, xohish paydo bo‘ladi. Bular bolada ma’lum bir maqsadni shakllanishiga va bu yo‘lda iroda kuchini sarf qilishga olib keladi. Irodali inson o‘z maqsadi sari intiladi va orzu havaslariga erishadi. Bunda bolaBunda bolada paydo bo‘luvchi xavas atrofdagi insonlarni kuzatish orqali, ularga aytilgan maqtov so‘zlarini tinglash va uning mahoratiga qoyil qolish, odamlarni uning mahoratini maqtashlari, bu insonni bilimdonligi, qo‘lidan ko‘plab ishlar kelishini kuzatishi unda shu insonga o‘xshashga xavasni uyg‘otadi. Unda orzu, armon, tilak, ishtiyoq va xafsala paydo bo‘ladi. Bu jarayonlar bolada uyg‘onayotgan ehtiyojlar va manfaatlar bilan bog‘liq bo‘lib uni o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalga oshirishning xissiyotlari, irodalari bilan bog‘liq jarayondir. Katta bo‘lib borayotgan bolada xavas paydo bo‘ladi. Kasbga nisbatan olganda bolani shu kasbga qiziqishi, intilishi, mayli, xohish, istak va orzusi bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Bu yo‘lda bola o‘ziga tilak tilab shu kasbni egallashga bo‘lgan intilishi sodir bo‘ladi. Agarda bola o‘z tilaklarini xafsala bilan amalga oshirmasa, xarakter qilmasa bu armon va orzu bo‘lib qoladi. SHuning uchun u zo‘r ishtiyoq bilan xarakter qilishi va armonlarini amalga oshirishi zarur bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki bu jarayonlar insonga xos bo‘lgan psixologik jarayonlarni tashkil etib. Insonning maqsadini vujudga kelishining asosi hisoblanadi. Albatta bu jarayonda insondan iroda kuchi ham talab qilinadi. Ishtiyoq bu – zo‘r istak, xohish hisoblanadi. Yoshlarni kasb tanlashlari

yoʻlidagi bunday jarayonlarni oʻrgangan psixolog olimlar ularni quyidagicha taʼriflaydilar. Insonni anglash darajasiga koʻra kasb tanlashda quyidagi tomonlar taʼriflanadi. Istak – intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina oʻzining hozirgi holatidan norozi ekanini his qilib tursa ham, lekin qanday maqsadga intilayotganini, binobarin, bu maqsadga erishishning yoʻl – yoʻriqlarini aniq bilmaydi. Bunda kishi nima istayotganini oʻzi anglab etmaydi. Bola oʻzi nimani istayotganini anglamas ekan bu istakni amalga oshirib boʻlmaydi.

Insondagi istak maʼlum darajada anglangan boʻlsa, tilak – xavasga aylanib ketishi mumkin. Tilak – havas intilishning shunday bir turidirki, bunda inson faqatgina qanday maqsadga intilayotganligini biladi, lekin bu maqsadga erishish yoʻllarini aniq bilmaydi. Bunday tilak boʻlgan payitda bolada koʻpincha yangi intilish paydo boʻladi. Bunda bolada tilakka erishish uchun vosita va yoʻllarqidirish, baʼzi vaqtda esa oʻzida tugʻilgan tilakni bosishga intilish hosil boʻladi. Agarda amalga oshirish uchun vosita va yoʻllar topilsa, u vaqtda tilak toʻla anglangan va maqsadga intilishning vosita va yoʻllarini aniq anglanganini koʻrsatadi. Tilakni tobora anglanib borishi natijasida xohishga aylanib boradi. Xohish esa toʻla anglangan intilishdir. Bunda inson maqsadi sari anglangan xarakatlarni bajarishga tayyorlanadi va oʻz irodasini shu maqsad sari yoʻnaltiradi. Kasb tanlashda inson irodaviy xarakatlarni amalga oshiradi. Irodaviy xarakterlar – ilgari moʻljallangan xohish bilan amalga oshiriladigan xarakterlardir. Insondagi bu irodaviy harakatlar ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda boʻlishi mumkin. Ixtiyoriy xarakterlar insonni anglangan va oʻz xohishi bilan bajariladigan harakatlari hisoblanadi. Irodaviy xarakterlar motivlar asosida amalga oshiriladi. Motivlar kurashi natijasida inson oʻzining maqsadlaridan kelib chiqib qarorlar qabul qiladi va shu qarorlarni amalga oshirish uchun intiladi.

Kasb va kasbiy psixologik jarayonlar kasb tanlovchidan quyidagilarni talab qiladi:

- Umumtaʼlim maktablarida beriladigan taʼlim darajalaridagi bilimlarga ega boʻlishni;

- Kasb tushunchasining ta’rifini, uning tabiatini, xususiyatlarini kasblar sonini va turlarini bilishni;

- Kasbni inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini tushunish va u haqida tasavvurga ega bo‘lish;

- Kasb tanlashga kerak bo‘lgan idrokni , xohishni mavjud bo‘lishi; · O‘z maqsadi va manfaatini to‘g‘ri anglab olgan bo‘lishi; · Kelajagi haqida tasavvurlarni bo‘lishi.

- Yoshlar o‘z kelajagini anglagandagina, o‘z qiziqishlari va manfaatlarini aniqlab olgandagina, hayotini tashkil etishdagi ehtiyojlarini tushungandagina kasbni tanlashlari onson kechadi. Kasb insonni boquvchi asosiy omil va hayotini tashkil etuvchi asos hisoblanadi.

XULOSA

O‘quvchilarda kasb tanlash ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab va mas’uliyatli jarayon bo‘lib, psixologik-pedagogik yondashuvlarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. Psixologik diagnostika, kasbiy ma’lumot berish, motivatsiyani rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘quvchilarning ongli kasb tanlashiga erishish mumkin. Bu esa yoshlarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E.G‘. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Shoumarov G‘.B. Psixologik maslahat asoslari. – Toshkent, 2019.
5. Klimov E.A. Kasb tanlash psixologiyasi. – Moskva, 2017.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
7. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarni kasbga yo‘naltirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari.